

SAYYID SHARIF JURJONIYNING «TA'RIFOT» ASARINING TUZILISH PRINSIPI

Davronbek Dilmurod o'g'li Abdullayev

Oriental universiteti, Filologiya va tillarni o'qitish fakulteti stajyor o'qituvchisi

mumarabdullayev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Sayyid Sharif Jurjoni ko'plab fanlarga oid asarlarga yozgan olim bo'lib, uning asarlari ichida "Ta'rifot" asari alohida ilmiy qiymatga ega. Ushbu maqolada mazkur asarning tuzilish prinsiplariga oid ma'lumotlar o'rin olgan.

Kalit so'zlar: ta'riflash, lug'aviy va istilohiy ma'nolar, zabt, etimologik kelib chiqish, havola, shohid.

ABSTRACT

Sayyid Sharif Jurjani is a scientist who wrote works on many subjects, among his works "Tarifat" has a special scientific value. In this article, we will focus on the structural principles of this work. Sayyid Sharif Jurjani is a scientist who wrote works on many subjects, among his works "Tarifat" has a special scientific value. In this article, we will focus on the structural principles of this work. In Sayyid Sharif Jurjani's work "Tarifat", two methods were mainly used to interpret the terms. The first method is interpretation by definition, in which the meaning is explained using other words. The second way is to quote the dictionary and terminological meanings of the word. This method has been used by Arab scholars since ancient times. Jurjani also used this method on a large scale. Additional methods used in the interpretation of words in the work of definition are to illuminate through examples, to show zabt (clearly showing letters and actions) and to show the etymological origin. Another interesting aspect of the work is the use of reference in the work. Jurjani used the link only in one place. The study of the structure of the work makes an important contribution to the study of the history of the science of lexicology.

Key words: definition, dictionary and terminological meanings, adjust, etymological origin, reference, witness.

Sharif Jurjoni o'zining ko'plab fanlarga oid asarlari bilan shuhrat qozongan. Ular orasida «Ta'rifot» asari, ayniqsa, o'zining ilmiy dolzarbligi bilan xos ahamiyatga ega. Ushbu asar o'zida turli fanlarga oid terminlarni jamlagan bo'lib, lingvistika, sintaksis,

morfologiya, falsafa, mantiq va shariat ilmlari shular jumlasidandir. Quyida ushbu asarning tuzilish prinsiplari, xossatan, muallifning terminlarni sharhlashda qoʻllagan metodlari haqida soʻz boradi.

Maqolada adabiyot sifatida Ali ibn Muhammad Jurjoniyni “Ta’rifot” asarining 2004-yil, Qohirada, “Dorul fadila” nashriyatida amalga oshirilgan nashridan, Huda Munosirning “منهج الشريف الجرجاني (ت816هـ) في الكشف عن دلالة المصطلحات من خلال معجمه: “ جامعة قسنطينة maqolasidan, hamda boshqa qoʻshimcha adabiyotlardan foydalanildi. Ushbu maqolani yozishda tavsifiy, tarixiy-qiyosiy va statistik metodlardan foydalanildi.

Sayyid Sharif Jurjoniyni “Ta’rifot” asarida terminlarni sharhlashda asosan ikki usuldan foydalanilgan. Birinchi usul ta’riflash orqali sharhlash boʻlib, bunda ma’no boshqa soʻzlardan foydalangan holda izohlanadi. Bunga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

الاستحالة: حركة في الكيف، كتسخين الماء وتبريده مع بقاء صورته النوعية.

Istihola (Oʻzgarish): (Modda) holatining asl naʼvini saqlab holgan holda oʻzgarishi, suvning qaynashi va muzlashi kabi¹.

الأجرام الفلكية: هي الأجسام التي فوق العناصر من الأفلاك والكواكب.

Al-ajromu-l-falakiyya (Fazoviy obyektlar): ular falaklar va yulduzlar ustidagi jismlardir².

الإنسان: هو الحيوان الناطق.

Inson gapiruvchi jonzotdir³.

Ushbu misollardan tashqari yana koʻplab misollar “Ta’rifot” asarida topiladi. Jurjoniyni ta’rif orqali sharhlash usulidan keng foydalangan. Eʼtiborni jalb qiladigan tomoni uning qisqa va loʻnda tarzda ta’riflarni keltirganidir. Holbuki, ta’rif orqali sharhlashda ma’noni baʼzan kengroq yoritish talab qilinadi. Ammo Jurjoniyni yashagan davr ilm-fan yuqori darajada rivojlangani uchun bunga hojat sezilmagan deyishimiz mumkin boʻladi.

Ikkinchi usul esa soʻzning lugʻaviy va istilohiy maʼnolarini keltirishdir. Bu usul arab olimlari tomonidan qadim zamonlardan qoʻllanib kelingan usul hisoblanadi. Jurjoniyni ham ushbu usuldan keng miqyosda foydalangan. Bunda u bir soʻzni keltirib, – في العروض، “istilohda” – في الاصطلاح – في اللغة – “tilda” iborasini, soʻngra

¹ علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيحة. 2004. ص 19

² نفس المصدر. ص 12

³ هدى مناصر. منهج الشريف الجرجاني (ت816هـ) في الكشف عن دلالة المصطلحات من خلال معجمه: التعريفات. مجلة العلوم الانسانية. عدد 40. جامعة قسنطينة، الجزائر. 2013. ص 113-114.

“aruzda”, عند المنطقيين – “*mantiqchilar nazdida*” va shunga o`xshash iboralardan foydalanadi.

Ushbu usul orqali sharhlangan terminlarga quyidagi misollarni keltirishimiz mumkin:

Usuli fiqh terminlari:

الاجتهاد: في اللغة: بذل الوسع، وفي الاصطلاح: استقراغ الفقيه الوسع المقصود من جهة الاستدلال.

Ijtihad: *lug`atda kuch sarflashdir, istilohda esa faqihning dalil topishda bor kuchini sarflashidir¹.*

الإجماع: في اللغة: العزم والاتفاق، وفي الاصطلاح: اتفاق المجتهدين من أمة محمد عليه الصلاة والسلام في عصر على أمر ديني.

Ijmo: *lug`atda: azm va ittifoqdir. Istilohda esa u Muhammad alayhissalotu vassalom ummati mujtahidlarining bir asrda bir diniy ish ustida ittifoq qilishidir².*

Fiqh terminlari:

الاعتكاف: هو في اللغة: المقام والاحتباس، وفي الشرع: لبث صائم في مسجد جماعة بنية.

E'tikof: *lug`atda maqom va tiyilishdir. Shariatda esa u ro`zadorning jamoat masjidida niyyat bilan qolishiga aytiladi³.*

الأذان: "في اللغة: مطلق الإعلام، وفي الشرع: الإعلام بوقت الصلاة بألفاظ معلومة مأثورة.

Azon: *lug`atda mutloq bildirishdir, shariatda esa namoz vaqtini ma'lum rivoyat qilingan lafzlar bilan bildirishdir⁴.*

Aqidaviy terminlar:

الإيمان في اللغة: التصديق بالقلب، وفي الشرع هو الاعتقاد بالقلب والإقرار باللسان.

Iymon: *lug`atda qalb bilan tasdiq qilishdir. Shariatda esa u qalb bilan e'tiqod qilish va til bilan iqrar bo'lishdir⁵.*

الإحسان: لغة: فعل ما ينبغي أن يفعل من الخير. وفي الشريعة: أن تعبد الله كأنك تراه، فإن لم تكن تراه فإنه يراك.

Ehson: *lug`atda qilinish kerak bo'lgan yaxshilikdir. Shariatda esa u Allohga uni ko'rib turganingdek ibodat qilishingdir, agar sen uni ko'rmayotgan bo'lsang, u seni ko'radi⁶.*

Tasavvuf terminlari:

التقديس: في اللغة: التطهير، وفي الاصطلاح: تنزيه الحق عن كل ما لا يليق بجنابه، وعن النقائص

الكونية مطلقاً، وعن جميع ما يعد كمالاً بالنسبة إلى غيره من الموجودات، مجردةً كانت أو غير مجردة.

¹ علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004. ص 12

² نفس المصدر. ص 12

³ نفس المصدر. ص 29

⁴ نفس المصدر. ص 16

⁵ نفس المصدر. ص 65

⁶ علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004. ص 14

Taqdis: lug'atda poklashdir. Istilohda esa Haqni unga loyiq bo'lmaydigan barcha narsadan va borliqqa odi nuqsonlardan hamda abstrakt yoki noabstrakt bo'lishidan qat'iy nazar Undan boshqa barcha mavjudotlar uchun kamolot hisoblanadigan barcha narsadan pok ekanligi e'tirof qilishdir¹.

Nahvga (sintaksis) oid terminlar:

الإسناد: في عرف النحاة: عبارة عن ضم إحدى الكلمتين إلى الأخرى على وجه الإفادة التامة، أي على وجه يحسن السكوت عليه. وفي اللغة: إضافة الشيء إلى الشيء.

Isnod: nahvchilar urfida: bir so'zni boshqa so'zga foida to'liq bo'ladigan shaklda, ya'ni undan keyin sukut qilish to'g'ri bo'ladigan tarzda biriktirishdir. Lug'atda esa u bir narsa ikkinchi narsaga qo'shishni bildiradi².

Yuqorida "isnod" so'zining ta'rifiga e'tibor bo'ladigan bo'lsak, muallif avval so'zning istilohiy ma'nosini, so'ngra esa lug'aviy ma'nosini bergan. Odatda esa avval so'zning lug'aviy ma'nosi, keyin istilohdagi ma'nosi taqdim etilar edi.

Balog'at terminlaridan:

التشبيه: في اللغة: الدلالة على مشاركة أمرٍ بآخر في معنى. وفي اصطلاح علماء البيان: هو الدلالة على اشتراك شيئين في وصف من أوصاف الشيء في نفسه، كالشجاعة في الأسد، والنور في الشمس.

Tashbeh: lug'atda bir narsaning boshqa narsa bilan bir ma'noda mushtarak ekanligiga dalolat qilishdir. Bayon ilmi olimlari istilohida esa u ikki narsa ma'lum bir narsaning o'zida bor sifatlaridan birida mushtarak ekanligiga dalolat qilishdir. Masalan, she'rning shijoati va quyoshning nuri kabi.

Ta'rifot asarini o'rgangan odam Jurjoni ta'rif orqali sharhlashda asosan fiqh istilohlariga urg'u berganini ko'rishi mumkin. Buni ikki sabab bilan izohlashimiz mumkin. Biri fiqh istilohlari o'zining lug'aviy ma'nosidan uzoq istilohiy ma'noga ega bo'lganligi, ikkinchisi esa fiqh ilmining yuksak ahamiyatga molik ekanligidadir³.

Antonimlar orqali izohlash ham so'zlarni sharhlashning keng qo'llaniladigan usullaridan biri hisoblanadi. Jurjoni ham bir qancha so'zlarni izohlashda zid ma'noli so'zlar-antonimlardan foydalangan. Quyida ularga misollar beramiz:

الأبدي: ما لا يكون منعماً.

Abadiy: yo'q bo'lmaydigandir⁴.

Bu yerda Jurjoni abadiy (أبدي) so'zi yo'q bo'ladigan (منعدم) so'zining ziddi ekanini ta'kidlab o'tgan, Ya'ni "abadiy" "yo'q bo'ladigan"ga zid ravishda hech qachon tugamaydi, nihoyaga yetmaydi.

¹ نفس المصدر. ص 58

² نفس المصدر. ص 22

³ هدى مناصر. منهج الشريف الجرجاني (ت816هـ) في الكشف عن دلالة المصطلحات من خلال معجمه: التعريفات. مجلة العلوم الانسانية. عدد 40. جامعة قسنطينة، الجزائر. 2013. ص 116.

⁴ علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيحة. 2004. ص 9

الحديث الصحيح: ما سلم لفظه من ركائة، ومعناه من مخالفة آية أو خبر متواتر، أو إجماع، وكان رواية عدل، وفي مقابله، السقيم.

Sahih hadis lafzi xatodan, ma'nosi esa oyat yoki mutavotir xabar yo ijmoga xilof bo'lishdan salomat hamda adl-adolatli odam rivoyati bo'lgan hadisdir. Uning muqobilida saqim turadi¹.

السقيم: في الحديث: خلاف الصحيح منه، وعمل الراوي بخلاف ما رواه يدل على سقمه.

Saqim (bemor) hadis: sahih hadisga xilof bo'lganidir². Rivoyat qiluvchining rivoyat qilganiga zid amal qilgani hadisning saqim ekanligiga dalolat qiladi. Ko'rib turganimizdek muallif ikki zid istilohni keltirgan hamda ularni izohlashda ularning bir-biriga zid ekanligini ikkovida ham qayd etgan.

الباطل: هو الذي لا يكون صحيحاً بأصله.

Botil asli to'g'ri bo'lmagan narsadir³. Ya'ni voqelikda sodir bo'lsada asli to'g'ri hisoblanmaydi va shariat uni bekor qiladi. Bu yerda botil so'zi to'g'ri so'ziga zid ekanligi orqali sharhlangan⁴.

Ta'rifot asarida so'zlarning izohlanishida qo'llanilgan qo'shimcha usullar **misollar** orqali yoritib berish, **zabt** (harf va harkatlarni aniq ko'rsatish) va **etimologik** kelib chiqishini ko'rsatishdir.

Misollar orqali yoritib berishda Jurjoniy avval Qur'oni Karimdan, so'ng Hadisi sharifdan, undan so'ngra esa arab adabiyotidan foydalangan. Musulmon Sharqida keng yoyilgan arab tili ilmlariga oid an'anaga ko'ra ushbu manbalardan olingan iqtiboslar **shohid** deb nomlanadi. Ularni qabul qilishning maxsus shartlari mavjud. Masalan, Qur'ondan shohid keltirilganda shozz qiroatdan bo'lmasligi, hadisdan keltirilganda sahih hadisdan bo'lishi, she'rdan keltirilganda esa hijriy 150-yilgacha bo'lgan shoirlardan bo'lishi talab qilinadi⁵. Shunga binoan, ushbu shartlarga to'g'ri keluvchi iqtiboslar shunchaki misol emas, muallif fikrini tasdiqlovchi isbot hisoblanadi.

Ta'rifot asarida iqtiboslarga alohida e'tibor berilgan. Ayniqsa, Qur'oni Karimdan ko'plab iqtiboslar keltirilgani, o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Qolaversa, muallifning islomiy ilmlardan hamda arab adabiyotidan chuqur bilishi hadislar va arab adabiyotidan namunalarni ham qo'llashida mulohaza qilinadi.

Zabt, ya'ni so'zlarning harf va harakatlarini aniq ko'rsatish qadimgi arab tilida yozilgan kitoblarda muhim ahamiyat kasb etgan. Ushbu doiraga oid terminlar bilan tanishib chiqqach, Ta'rifot asarida zabt orqali ko'rsatilgan so'zlarga to'xtalamiz.

¹ نفس المصدر. ص 74

² نفس المصدر. ص 103

³ علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيحة. 2004. ص 38

⁴ أ. هدى مناصر. منهج الشريف الجرجاني (ت816هـ) في الكشف عن دلالة المصطلحات من خلال معجمه: التعريفات. مجلة العلوم الإنسانية. عدد 40. جامعة قسنطينة، الجزائر. 2013. ص 117.

⁵ سعيد الأفغاني. الموجز في قواعد اللغة العربية. بيروت: دار الفكر. ص 14

Tashkil – shakl va harakatlardan farqli o‘laroq, u suls, nasx va ijzoda katta harflarning tagida yoziladigan kichik harflardan iborat jimjimador shakllardir.

Mo‘jam – nuqtali harf.

Muhmal – nuqtasiz harf.

Shakl – so‘zlar harakatlarini zabt etish.

Zabt – kitob matnini to‘g‘rilash va uni sahihligiga ishonch hosil qilishdir, uni shakl deb ham ataladi.

Zabtu-l-muhmal – muhmal harflarni zabt etish, ya’ni ularni mo‘jam harflardan ajratib ko‘rsatish. Muhmal harflarni zabt etishning ko‘plab usullari bor. Muhmal harflarni zabt etish tas’hihning oldini oladi¹.

Ko‘rib o‘tganimizdek, so‘zlarni zabt etish, noto‘g‘ri o‘qish natijasida ma’no buzilishining oldini oladi. Jurjoni o‘n bitta o‘rinda zabtdan foydalangan. Masalan:

أح: بفتح الألف وضمها والحاء المهملة، يدل على وجع الصدر.

Ah: fath, ya’ni “a” yoki damm “u” unlisiga ega alif va muhmal “ho” bilan. Ko‘krak og‘rig‘ini bildiradi².

Shuningdek uni “juz” va “jaz” istilohlarini ham zabt orqali ajratganini ko‘rishimiz mumkin:

الجزء: بالضم: ما يتركب الشيء منه ومن غيره. وعند علماء العروض: عبارة عما من شأنه أن يكون الشعر مقطوعاً به.

Juz`: damm (u) bilan: Narsa undan va undan boshqasidan tarkib topadi. Aruz olimlari nazdida u she’r u bilan bo‘linadigan narsadir.

وبالفتح: وهو حذف جزأين من الشطرين، كحذف العروض والضرب، ويسمى مجزوءاً.

Fath (a) bilan esa: shatrdan ikki juzni tushirib qoldirishdir. Bunga aruz va zarbni tushirib qoldirish misol bo‘ladi. Bunday bayt majzu’ deb nomlanadi³.

Shu bilan qatorda Jurjoni o‘n bitta o‘rinda zabtdan foydlangan⁴.

Shuningdek Jurjoni o‘n bitta o‘rinda harfni zabt etganini ko‘ramiz. U mubora`a istilohi ta’rifida shunday deydi:

المباراة: بالهمزة، وتركها خطأ، وهي أن يقول لامرأته برئت من نكاحك بكذا، وتقبله هي.

Mubora`a: hamza bilan, hamzasiz xato. U bir kishi ayoliga “bari`tu min nikahiki bikaza” (nikohingdan falon narsa evaziga kechdim) deyishi hamda ayolini qabul

¹ يوسف المرعشلي. أصول كتابة البحث العلمي وتحقيق المخطوطات. بيروت: دار المعرفة. 2003. ص. 209-211.
أحمد شوقي. مصطفى طوبي. معجم مصطلحات المخطوط العربي. مراكش: المطبعة الوراثة الوطنية. ط1 و3. 2005/2003

عبد الهادي الفخلي. تحقيق التراث. جدة: مكتبة العلم. 1982. ص. 181

² علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004. ص. 13

³ علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004. ص. 68

⁴ أ. هدى مناصر. منهج الشريف الجرجاني (ت816هـ) في الكشف عن دلالة المصطلحات من خلال معجمه: التعريفات. مجلة العلوم الانسانية. عدد 40. جامعة قسنطينة، الجزائر. 2013. ص. 119-120.

*qilishidir*¹. Ko‘rib turganimizdek, Jurjoniy bu yerda mubora`aning ikkinchi alifi hamza bilan o‘qilishi, hamzasiz o‘qilishi esa xato ma’no keltirib chiqarishiga urg‘u berib o‘tgan.

Keyingi yordamchi usul esa **etimologik** kelib chiqishini ko‘rsatishdir. Etimologik kelib chiqishni ko‘rsatish, tilda asli mavjud bo‘lmagan terminlarning ma’nosi to‘g‘ri tushunishga ko‘mak beradi. Ta’rifot asarida ikki o‘rinda so‘zning etimologik kelib chiqishi ko‘rsatilgan:

الاسطقسات: لفظ يوناني، بمعنى الأصل، وتسمى العناصر الأربعة، التي هي الماء والأرض والهواء والنار، اسطقسات، لأنه أصول المركبات، التي هي الحيوانات والنباتات والمعادن.

Ustuqussot: yunoncha so‘z bo‘lib, asl degan ma’noni anglatadi. To‘rt unsur: suv, yer, havo va olov ustusot deb ataladi, chunki ular murakkab moddalar: hayvonlar, o‘simliklar va ma’danlarning asoslaridir².

الهيولي: لفظ يوناني بمعنى: الأصل، والمادة، وفي الاصطلاح: هي جوهر في الجسم قابل لما يعرض لذلك الجسم من الاتصال والانفصال محل للصورتين: الجسمية، والنوعية.

Hayulo: yunoncha so‘z bo‘lib, asl, modda degani. Istilohda: jismdagi javhar bo‘lib, shu jismdagi birikish va bo‘linishga uchrovchidir. Ikki surat: jismiy va nav‘iyga ega³. Mulohaza qilib o‘tganimizdek, asarda asl arab tilida bo‘lmagan ushbu ikki so‘zning etimologik kelib chiqishi ko‘rsatilib, muhim lug‘aviy-ilmiy ma’lumot taqdim etilgan.

Asarning qiziq jihatlaridan yana biri, asarda **havoladan** foydalanilganidir. Jurjoniy faqat bir o‘rindagina havoladan foydalangan. “Ustuqus”ning ta’rifida uni quyidagicha izohlagan:

الأسطقس: يُعرف من تعريف الداخل.

Ustuquss: doxil (ichki)ning ta’rifidan bilinadi. Doxilni esa quyidagicha ta’riflagan edi⁴:

الدَّاخل : باعتبار كونه جزءا يسمى ركنًا، وباعتبار كونه بحيث ينتهي إليه التحليل يسمى أسطقسا، وباعتبار كونه قابلا للصورة المعينة بسم مادة وهيولي.

Doxil bir narsaning qismi bo‘lishi e’tiboridan rukn deb, bo‘linish unda tugashi jihatidan **ustuqus**, muayyan bir suratga ega bo‘lishi imkoniyatidan modda va hayula deb nomlanadi⁵⁶.

¹ علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيحة. 2004. ص 165

² نفس المصدر. ص 23

³ علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيحة. 2004. ص 206

⁴ نفس المصدر. ص 23

⁵ نفس المصدر. ص 90

⁶ أ. هدى مناصر. منهج الشرف الجرجاني (ت816هـ) في الكشف عن دلالة المصطلحات من خلال معجمه: التعريفات. مجلة العلوم الانسانية. عدد 40. جامعة قسنطينة، الجزائر. 2013. ص 114-116.

Yuqoridagilardan xulosa qilib aytishimiz mumkinki, “Ta’rifot” asari, arab termin lug‘atshunosligi tarixida o‘ziga xos uslubi, tartibi va izohlash usullari orqali alohida o‘rin tutuvchi qimmatli asardir. Unda sharh orqali ta’riflash, antonim orqali, zabt, havola va boshqa usullar oqrali terminlar izohlangan. Unda ko‘plab fanlarga oid terminlar, xossatan, fiqh faniga doir terminlarni ham lug‘aviy, ham istilohiy ma’nosini sharhlanganini ko‘rishimiz mumkin.

Oldimizda “Ta’rifot” asarining qo‘lyozma nusxalarini o‘rganib, asarning ilmiy-tanqidiy matni ustida tadqiqot olib borish vazifasi turibdi. Zero, toshbosma nusxalarning matnida turli xatolar va qisqartirishlarga yo‘l qo‘yilgani ehtimoli yo‘q emas.

1. أ. هدى مناصر. منهج الشريف الجرجاني (ت816هـ) في الكشف عن دلالة المصطلحات من خلال معجمه: التعريفات. مجلة العلوم الانسانية. عدد 40. جامعة قسنطينة ، الجزائر. 2013.
2. أحمد شوقي. مصطفى طوبي. معجم مصطلحات المخطوط العربي. مراكش: المطبعة الوراق الوطنية. ط1 و3. 2005/2003
3. سعيد الأفغاني. الموجز في قواعد اللغة العربية. بيروت: دار الفكر.
4. عبد الهادي الفخلي. تحقيق التراث. جدة: مكتبة العلم. 1982.
5. علي بن محمد الجرجاني. التعريفات. القاهرة: دار الفضيلة. 2004
6. يوسف المرعشلي. أصول كتابة البحث العلمي وتحقيق المخطوطات. بيروت: دار المعرفة. 2003